

## O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


### I. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, respublikada 61,0 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarining katta qismi quyidagilarga:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 12,2 mingta (20,0 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 8,5 mingta (13,9 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 6,2 mingta (10,1 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 4,9 mingta (8,1 %);
- mebel ishlab chiqarish – 4,2 mingta (6,9 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,7 mingta (6,1 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 2,9 mingta (4,7 %)ga to'g'ri keldi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra



### II. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida respublika korxonalari tomonidan **289,3** trln so' mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **8,0** foizga oshgan.

	Hajmi, mlrd so' m	Fizik hajm indeksi, % da
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>289 254,4</b>	<b>108,0</b>
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 580,9	107,4
Andijon viloyati	25 945,4	108,4
Buxoro viloyati	12 671,1	108,2
Jizzax viloyati	9 132,4	107,8
Qashqadaryo viloyati	10 911,5	107,4
Navoiy viloyati	73 503,9	105,3
Namangan viloyati	9 279,0	108,8
Samarqand viloyati	14 552,2	109,0
Surxondaryo viloyati	3 777,2	108,7
Sirdaryo viloyati <sup>1)</sup>	7 191,4	108,9
Toshkent viloyati	42 961,1	107,8
Farg'ona viloyati	13 763,7	108,0
Xorazm viloyati	8 229,4	108,1
Toshkent shahri	45 945,3	107,1

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda Navoiy viloyatida (**66,0** mln so' m), Toshkent shahrida (**14,4** mln so' m) va Toshkent viloyatida (**13,6** mln so' m) respublika o'rtacha ko'rsatkichi (**7,6** mln so' m)dan yuqori natijalar qayd etilgan.

Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **106,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida **107,1** %, Samarqand viloyatida **107,0** %, Namangan viloyatida **106,8** %, Buxoro viloyatida **106,6** %, Andijon viloyatida **106,5** % qayd etilib respublika ko'rsatkichidan yuqori natija kuzatildi.

<sup>1)</sup> viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini hisobga olgan holda.

### Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-mart oylarida



**Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:**


[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(oylik\)](#)

### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, **246,1** trln so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **85,1** foizni tashkil etgan holda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **20,3** trln so‘m (**7,0** %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda **21,3** trln so‘m (**7,4** %) hamda suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda **1,6** trln so‘m (**0,5** %)ni tashkil etdi.

### Seksiyalar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi 2026-yilning yanvar-mart oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B - tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan.

### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yil yanvar-mart oylarida respublikada quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: tabiiy gaz – 9,6 mlrd m<sup>3</sup>, neft – 157,3 ming t, ko' mir – 1,1 mln t, avtomobil benzini – 313,2 ming t, dizel yoqilg' isi – 280,9 ming t, portlandsement – 4,1 mln t, ip kalava – 197,4 ming t, yumshoq bug' doy va spelta uni – 407,9 ming t.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart <sup>1)</sup>	2025-yil yanvar-mart <sup>1)</sup>	2026-yil yanvar-mart
Avtomobil dvigatellari, dona	63 192	57 924 <sup>2)</sup>	58 005
Avtomobil benzini, ming t	360,6	304,3	313,2
Dizel yoqilg' isi, ming t	211,8	182,0	280,9 <sup>3)</sup>
Ko' mir, mln t	1,0	1,2	1,1
Neft, ming t	179,1	160,8	157,3
Tabiiy gaz, mlrd m <sup>3</sup>	11,6	11,3	9,6
Gaz kondensati, ming t	327,4	296,6	242,3
Portlandsement, mln t	2,6	3,6	4,1

<sup>1)</sup> 2024-2025-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

<sup>2)</sup> "UZAUTO MOTORS POWERTRAIN" AJ tomonidan 2026-yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davri bo'yicha avtomobil dvigatellari hamda silindr bloklari ishlab chiqarish hajmlariga oid ma'lumotlar alohida aniqlashtirilgan holda taqdim etildi.

<sup>3)</sup> 2026-yil yanvar oyida dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish hajmi 81,0 ming tonnani, fevral oyida 54,8 ming tonnani, mart oyida esa 145,1 ming tonnani tashkil etdi.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)


#### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,1 %, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – 15,2 %, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport

uskunalari ishlab chiqarish va mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatishning ulushi – **16,4 %** hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – **6,3** foizni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi **1,1** foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali – **17,9 %**, o‘rta-quyi texnologiyali – **46,1 %**, quyi texnologiyali – **34,9** foizni tashkil etgan.



### O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni yanvar-mart oylarida, donada

Sanoat mahsulotlari	2025-yil <sup>*)</sup>	2026-yil
Yuk avtomobillari	915	1 178
Yengil avtomobillar	97 274	108 769
<i>shundan:</i>		
<i>Maxsus yengil avtomobillar</i>	7 426	11 998
“Cobalt”	32 208	38 397
“Damas”	22 409	21 503
“Tracker”	10 513	10 746
“Onix”	11 774	8 950
“KIA”	6 150	7 105
“Chery”	1 996	1 981

Sanoat mahsulotlari	2025-yil <sup>1)</sup>	2026-yil
"Haval"	1 885	2 978
"BYD"	2 913	5 111

<sup>1)</sup> 2025-yilning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasi

2026-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasi ishlab chiqarish **104,7** foizni, yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa **120,5** foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart <sup>1)</sup>	2025-yil yanvar-mart <sup>1)</sup>	2026-yil yanvar-mart
<b>Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt soat</b>	<b>21 660,6</b>	<b>21 909,9</b>	<b>22 934,3</b>
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	<i>20 102,6</i>	<i>17 175,5</i>	<i>15 880,0</i>
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlari asosida)</i>	<i>1 558,0</i>	<i>4 734,4</i>	<i>7 054,3</i>
Issiqlik energiyasi, ming Gkal (yirik korxonalar)	8 627,6	5 445,3	6 561,2
Ko' mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, mln m <sup>3</sup> (yirik korxonalar)	41,3	15,3	-

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasi (yirik korxonalar tomonidan)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida **33,8** foizga kamayish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **17,2** foizga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart <sup>1)</sup>	2025-yil yanvar-mart <sup>1)</sup>	2026-yil yanvar-mart
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	147,8	161,9	189,8

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart <sup>1)</sup>	2025-yil yanvar-mart <sup>1)</sup>	2026-yil yanvar-mart
Chiqindi o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	99,7	104,8	103,1
To'qimachilik chiqindilari, t	4 394,2	9 005,0	5 962,5

<sup>1)</sup> 2024-2025-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

#### IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

#### Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Sanoat va energetika  
statistikasi boshqarmasi

**Ijrochi:**  
**O. Izmailov**  
**+998 71 203-80-00 (1205)**

**Manzil:**

